



TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURI VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATIDAGI ISLOHOTLAR

Yo'ldosheva Mohichehra Musurmon qizi

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat Milliy instituti magistranti

Annotasiya: Mazkur tezisdagi TALIS xalqaro baholash dasturining mazmuni, tarixiy bosqichlari va O'zbekiston ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Garchi O'zbekiston 2024-yilda TALISda ilk bor rasmiy ishtirok etgan bo'lsa-da, tezisdagi asosan 2018-yilgi natijalar asosida o'tkazilgan ichki tadqiqotlar hamda ular asosida amalga oshirilgan ta'lim siyosatidagi islohotlar tahlil qilinadi. O'qituvchi maqomi, rahbarlik salohiyati va ta'lim sifati muammolari chuqur ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: TALIS, ta'lim islohotlari, o'qituvchi maqomi, kasbiy rivojlanish, maktab rahbariyati, xalqaro baholash

Аннотация: В данной тезисе освещаются содержание, исторические этапы международной программы оценки TALIS и её значение в системе образования Узбекистана. Несмотря на то, что Узбекистан официально впервые участвовал в TALIS в 2024 году, в тезисе в основном анализируются внутренние исследования, проведённые на основе результатов 2018 года, а также реформы в образовательной политике, осуществлённые на их основе. Глубоко рассматриваются вопросы статуса учителя, управленческого потенциала и проблем качества образования.

Ключевые слова: TALIS, реформы образования, статус учителя, профессиональное развитие, школьное руководство, международная оценка

Abstract: This thesis highlights the content, historical stages of the international TALIS assessment program, and its significance in the education system of Uzbekistan. Although Uzbekistan officially participated in TALIS for the first time in 2024, the thesis primarily analyzes internal studies conducted based on the 2018 results, as well as the educational policy reforms implemented on their basis. Issues related to the status of teachers, leadership potential, and the quality of education are thoroughly examined

.Keywords: TALIS, education reforms, teacher status, professional development, school leadership, international assessment

KIRISH.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar xalqaro standartlarga mos ta'lim sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish va rahbarlik tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Ayniqsa, ta'lim sifatini baholashda xalqaro tajribalar, xususan TALIS (Teaching and Learning International Survey – O'qitish va o'rganish xalqaro tadqiqoti) dasturining



o'zni muhim hisoblanadi. Mazkur tezisda TALIS tadqiqotining mazmun-mohiyati, uni o'tkazish tarixiy bosqichlari, O'zbekistonning ushbu dasturdagi ishtiroki va bu borada mamlakat ta'lim siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ilmiy tahlil yuritilgan.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Agar rahbarlar, muallimlar yangi O'zbekistonga munosib harakat qilsa, farzandlarimizni davr talabiga mos o'qitishimiz mumkin. Xalqimiz bizga eng katta boyligini – zurriyodini ishonib berayapti. Bu juda katta mas'uliyat. Shuni his qilib, o'zimizni qiynab, maktabni isloh qilsak, kelajakka zamin yaratamiz, taraqqiyotning tamal toshi ham mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm fan ta'lim va tarbiyadir".

Barchamizga ma'lumki, har qanaday soha bo'lmasin, uning rivoji uchun avvalo, ta'lim tizimini rivojlantirish darkor. Har bir sohani o'zining malakali va yetuk kadrlari rivojlantira oladi desam mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat, muhandislar deysizmi, shifokormi yo o'qituvchilarmi har bir kasbning mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun sifatli ta'lim muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, XXI asr texnologiyalar asrida barcha mamalakatlar o'zining yangi g'oyalari asosida ishlab chiqarayotgan texnologiyalari bilan peshqadamlik qilayotgan bir vaqtda O'zbekiston ham o'zining rivojlanish strategiyalarini aniq belgilab oldi va kelajakdagi maqsadlarga yanada tezroq erishish uchun ta'lim sifatini oshirishga o'z e'tiborini qaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

TALIS (Teaching and Learning International Survey) xalqaro tadqiqoti bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar bu dasturning ta'lim sifatini oshirishdagi o'zni va ta'sirini ko'rsatib bermoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 2008 yildan boshlab o'tkazib kelinayotgan mazkur tadqiqot o'qituvchilarning kasbiy malakasi, o'qitish uslublari, mehnat sharoitlari va maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini xalqaro miqyosda solishtirish imkonini beradi. [Schleicher,2011] tomonidan qayd etilishicha, TALIS (Teaching and Learning International Survey) o'qituvchilar faoliyatini real holatda o'rganish, ularning ehtiyojlari va kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda eng samarali vositalardan biridir.

TALIS 2018 yili natijalari asosida tayyorlangan "Teachers and School Leaders as Lifelong Learners" nomli hisobotda (OECD, 2019) o'qituvchilar faoliyatida doimiy o'rganish va kasbiy rivojlanish zarurligi urg'ulanadi. Ushbu hisobotda 48 dan ortiq mamlakatlarda o'qituvchilarning o'zini baholash ko'rsatkichlari, metodik yondashuvlari va rahbarlar bilan o'zaro aloqasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Bu tajribalar ta'lim siyosatini ma'lumotlarga asoslangan holda shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2024-yil 19-iyundagi PF-91 sonli "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida xalqaro tadqiqotlarda, xususan TALIS dasturida ishtirok etish zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, 2023-yil 11-sentabrda PF 158 sonli

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini xalqaro standartlarga moslashtirish vazifasi belgilangan.

Mahalliy olimlar -Sh. Qurbonov (2022), D.Jurayev (2023) va boshqalarning tadqiqotlarida O‘zbekistonda o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ta’limdagi menejment tizimini takomillashtirish, hamda xalqaro tadqiqotlar asosida siyosiy qarorlar ishlab chiqish zaruriyati ko‘rsatib o‘tilgan.Jumladan, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat va milliy instituti tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda ham TALIS 2024 tadqiqotida O‘zbekistonning ilk marotaba ishtirok etayotgani va bu ishtirok mamlakat ta’lim siyosatida yangicha yondashuvlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

TALIS (Teaching and Learning International Survey) dasturi 2008-yildan boshlab har besh yilda o‘tkazilib kelinadi va dunyoning turli mamlakatlarida ta’lim tizimining sifatini baholashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. TALIS dasturi o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini, ta’lim jarayonining samaradorligini va o‘quvchilarga ta’lim berishdagi innovatsiyalarni o‘rganish uchun xalqaro miqyosda tan olingan metodologiyalarga asoslanadi. Respondentlar so‘rovnoma to‘ldirish orqali ishtirok etadi. Har bir so‘rovnomaning to‘ldirish uchun taxminan 45-60 daqiqa vaqt sarflanadi. TALIS so‘rovnomalari (o‘qituvchilar va maktab direktorlari uchun alohida) onlayn yoki qog‘oz shaklda to‘ldiriladi. Javoblar butunlay maxfiy bo‘lib, o‘qituvchilar, maktab direktorlari yoki maktablarning ma’lumotlari hech qachon individual tarzda oshkor etilmaydi

TALIS dasturining tarixiy bosqichlari quyidagicha tashkil topgan:

2008-yil – dastlabki TALIS tadqiqoti o‘tkazildi, unda 4 ta qit’a bo‘ylab 24 mamlakat ishtirok etdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘qituvchilarning ish faoliyatini, ta’lim sifatini va o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini o‘rganish edi.

2013-yil i TALIS tadqiqotining ikkinchi davriyligi yanada kengroq qamrovga ega bo‘lib, u 37 ta ishtirokchi mamlakat yoki iqtisodiyotni o‘z ichiga oldi. –shuningdek, o‘qituvchilarning tajribalarini baholash va kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash masalalariga ko‘proq e’tibor qaratildi.TALIS 2013 tadqiqotida, shuningdek, ishtirokchi mamlakatlarga boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘qituvchilari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish imkoniyatini berdi. Bundan tashqari, mamlakatlar PISA 2012 tadqiqotida qatnashgan maktablarda TALIS 2013 tadqiqotini o‘tkazish imkoniyatiga ega edilar.

2018-yil – uchinchi bosqichda 48 mamlakat ishtirok etdi, TALIS 2018 tadqiqoti TALIS 2013 tadqiqotining muvaffaqiyatiga asoslanadi, unda maktab rahbariyati, o‘qituvchilarning professional muhiti, o‘qitish sharoitlari, maktab va o‘qituvchilarning samaradorligiga katta e’tibor qaratiladi. bunda ta’lim rahbarlari va o‘qituvchilarni o‘qitish metodologiyalaridagi innovatsiyalarni o‘rganishga alohida urg‘u berildi.

2024-yil – to‘rtinchi bosqichda, 52 mamalakat shu jumladan O‘zbekiston rasmiy ravishda ishtirok etdi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonning ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning xalqaro tajribalarga mosligini baholashdan iborat.



O'zbekiston, 2024-yilda TALIS dasturida rasmiy ishtirok etayotgan bo'lsa-da, undan oldin 2021-yilda Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik Mahorat va Milliy instituti tomonidan 2018-yilgi TALIS tadqiqotlari asosida ichki tadqiqotlar o'tkazilgan. Ushbu tadqiqotlar sinov tariqasida amalga oshirilgan bo'lib, O'zbekiston ta'lim tizimidagi rahbarlik va o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini baholashda samarali vosita bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasining asosiy qismi sifatida so'rovnomalar va intervyular orqali o'qituvchilarning va rahbarlarning kasbiy faoliyati, o'quvchilar bilan ishlash usullari, ta'lim tizimining samaradorligi va rahbarlikning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Ushbu metodologik yondashuv TALIS dasturining ilg'or xalqaro tajribalarini O'zbekiston ta'lim siyosatiga joriy etish uchun zarur vositalarni taqdim etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

TALIS tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsiy manfaati yuqori bo'lgan o'qituvchilar, ta'lim berishdan ko'proq zavqlanadilar hamda yangilikka moyil bo'ladilar, bundan farqli o'laroq o'ziga ishonchi bo'lmagan o'qituvchilar bolalarning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladilar[John Bangs

Varkey Foundation Global Teacher Status Index tahlillariga ko'ra, Xitoy, Malayziya, Tayvan, Rossiya va Indoneziyadagi o'qituvchilar dunyodagi eng yuqori maqomga ega ekanligini ma'lum qilgan. O'qituvchi maqomi yuqori bo'lgan mamlakatlarda (Xitoy, Tayvan va Singapur) o'qituvchilar maqomi past bo'lgan mamlakatlarga qaraganda (Braziliya va Isroil) o'quvchilarning natijalari yuqori. Biroq, o'qituvchi maqomi va o'qituvchilar maoshi o'rtasidagi munosabatlar zaif ijobiy. O'qituvchilar maqomi yuqori bo'lgan ko'p mamlakatlarda, shu jumladan Xitoy, Malayziya, Hindiston va Indoneziyada o'qituvchilarning maoshi shunga qaramay past darajada qolmoqda. Xuddi shunday, o'qituvchilar maqomi nisbatan past bo'lgan ko'p mamlakatlarda (Ispaniya, Germaniya) o'qituvchilar maoshi nisbatan yuqori. Shuningdek, o'qituvchilarga bo'lgan hurmat qanchalik baland bo'lsa, ota-ona bolasini o'qituvchilik kasbiga undashi ehtimoli shunchalik yuqori ekanligi aniqlandi. Shunga qaramay, tadqiqotchilarning fikricha, o'quvchilarning yuqori natijalariga erishish uchun yuqori maosh ham, yuqori o'qituvchi maqomi ham zarur.

O'zbekistonda 2021 yilda TALIS-2018 tadqiqotlari asosida ichki tadqiqot tajriba sinov sifatida o'tkazildi. Tadqiqotda mamlakatimizning jami 14 ta hududidan 4000 ta maktab tasodifiy ravishda tanlab olindi va 12446 nafar respondent ishtirok etdi. Ichki tadqiqot natijalariga ko'ra, so'rovda ishtirok etgan pedagoglarning 41,2 foizi o'qituvchilik kasbi jamiyatda yetarlicha qadrlanmagan deb hisoblaydi. Bu ko'rsatkich, PISA tadqiqotining yetakchilaridan bo'lgan Singapurda aksincha, aksariyat o'qituvchilar jamiyatda o'z kasblarining qadrlanishiga ishonishadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchilik kasbining jamiyatdagi maqomi yuqori bo'lgan davlatlarda o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlari ham nisbatan yuqori darajada namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ham o'qituvchilik kasbining ijtimoiy obro'sini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'rilishi zarur ekani ayon bo'ladi.





Ma'lumki, 2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha umumxalq referendumini o'tkazildi. Ushbu o'zgarishlar doirasida ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, 2024-yil 1-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ham aynan TALIS tadqiqotlarining natijalaridan kelib chiqib amalga oshirilgan muhim qadam sifatida baholanishi mumkin.

Direktorlarning boshqaruv sohalarida malaka oshirish ehtiyoji va buning yechimi sifatida tashkil etilgan menejerlik kursi

Ichki tadqiqot natijalariga ko'ra, maktab direktorlarining boshqaruv sohalarida malaka oshirish ehtiyoji aniq ko'rsatkichlar bilan belgilandi. Jumladan, respondentlarning 43 foizi moliyaviy boshqaruv sohasida bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezayotganini bildirgan. Bu ko'rsatkich TALIS xalqaro o'rtacha natijasidan 1,5 barobar yuqori ekanligi, O'zbekiston ta'lim tizimida moliyaviy menejmentga bo'lgan e'tibor va tayyorgarlik darajasi global standartlarga nisbatan pastroq ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, inson resurslarini boshqarish (30%) va tizimli teskari aloqa o'rnatish (28%) kabi sohalarida ham direktorlarning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyoji yuqori darajada qayd etildi.

Ushbu natijalar amaldagi maktab rahbarlarining, ayniqsa, strategik rejalashtirish, xodimlarni rivojlantirish va o'zaro muloqot jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, maktab direktorlarining menejerlik salohiyatini oshirish maqsadida tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, 2024-yil 1-yanvardan boshlab Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat va milliy institut huzurida maktab rahbarlari uchun maxsus Menejerlik kursi tashkil etildi. Ushbu kurslar moliyaviy boshqaruv, inson resurslarini boshqarish va teskari aloqa madaniyatini shakllantirish va shu kabi ustuvor yo'nalishlarda amaliy va nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan. Shuningdek, kurslarning o'quv dasturi xalqaro tajriba natijalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, qatnashchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishni maqsad qilgan. Natijada, maktab direktorlarining rahbarlik faoliyati sifatini oshirish, ta'lim muassasalarining umumiy boshqaruv samaradorligini kuchaytirish uchun zarur asos yaratildi.

Xulosa

TALIS xalqaro baholash dasturining O'zbekiston ta'lim tizimidagi ahamiyati juda katta bo'lib, u o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini, maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini va ta'lim sifati omillarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. O'zbekistonning TALIS-2024 tadqiqotida ilk bor rasmiy ishtirok etishi, mamlakat ta'lim siyosatida xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni shakllantirishda muhim bosqich bo'ladi desam mubolag'a bo'lmaydi. TALIS xalqaro baholash dasturining tamoyillari asosida 2021-yilda O'zbekistonda o'tkazilgan ichki tadqiqot natijalari mamlakat ta'lim tizimidagi dolzarb muammolarni aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchilik kasbining





ijtimoiy maqomi pastligi, pedagoglar va maktab rahbarlarining kasbiy rivojlanishga ehtiyoji yuqoriligi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qilayotgani aniqlandi. Aynan ushbu muammolar asosida so'nggi yillarda ta'lim siyosatida muhim islohotlar – jumladan, “Pedagog maqomi to'g'risida”gi qonun va maktab rahbarlari uchun menejerlik kurslarining joriy etilishi – amalga oshirildi. Bu esa O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va xalqaro tajribalar asosida samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Creating effective teaching and learning environments: First results from Talis – isbn 978-92-64-05605-3© oecd 2009
- 2.© oecd 2014» talis 2013 results (volume i): teachers and school leaders as lifelong learners
3. Xalqaro tajriba mezonlari asosida a.avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik, metodik va ijtimoiy muhit haqida ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot hisoboti 2-qism. Toshkent-2021.
4. O'zbekiston respublikasining “ta'lim to'g'risida”gi qonuni. www.lex.uz
5. Dilshoda Jalilova Ural qizi, & Shaxnoza Jalilova Ural qizi (2023). Ta'lim jarayonlarida «Talis xalqaro baholash dasturi»dan foydalanish. Science and innovation, 2 (special issue 10), 561-563. Doi: 10.5281/zenodo.10040578 3
6. Sh. Ruziyeva (2022). Xalqaro baholash dasturlarining uzluksiz ta'limdagi bugungi kundagi ahamiyati. Science and innovation, 1 (b5), 375-379. Doi: 10.5281/zenodo.7057413
- 7.Международная образовательная программа talis. // www.ziynet.uz.